

## XX ASR O'ZBEK SHE'RIYATIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI

Tursunqulova Muhayyo Olim qizi

Qarshi davlat universiteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1564733>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr o'zbek she'riyatiga ulkan hissa qo'shgan avlodlarimiz siyomosi keng ko'lamma yoritilgan. Har bir shoir, shoira o'zi tug'ilib o'sgan ona vatanini, unda yashagan o'zining avlodlarini madh etib qalamga oladi. Bu kabi ijodkorlar she'riyatida xalq og'zaki ijodi qahramonlarini, g'azal mulkining sultonini Alisher Navoiy, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur, sohibqiron Amir Temur kabi buyuk siymolarni ko'rishimiz mumkin. Bu davrda tarixiy obrazlar ko'proq milliy uyg'onish, erkinlik, jasorat, g'urur va xotira ramzi sifatida talqin qilingan. Shoirlar tarixni faqat faktlar jamlanmasi emas, balki ruhiy-ma'naviy tajriba manbai sifatida qayta gavdalantirganlar.

**Kalit so'zlar:** tarixiy obraz, she'riyat, milliy ong, hayotiy tuyg'u, ma'naviy yuksaklik, adolat.

**Abstract.** This article is a great contribution to Uzbek poetry of the 20 th century the figure of our added generations is widely covered. Every poet, poetess writes in praise of his motherland, where he was born and grew up, and his descendants who lived in it. In the poetry of such artists, we can see the heroes of folk art, the great figures such as Alisher Navoi, the sultan of the ghazal estate, Zahiriddin Muhammad Babur, the king and port' and Amir Temur. During the period, historical images were interpreted more as symbols of national awakening, freedom, courage, pride and memory. Poets re-embodied history not only as a collection of facts, but as a source of spiritual and spiritual experience.

**Keywords:** historical image, poetry, national consciousness, life feeling, moral highness, justice.

**Аннотация.** Эта статья является большим вкладом в узбекскую XX века. Фигура наших добавленных поколений широко освещается. Каждый поэт, поэтесса пишет во славу своей Родины где он родился и вырос, и своих потомков, живших в ней. В поэзии таких художников мы можем увидеть героев народного творчества, таких великих деятелей как Алишер Навои, султан газельного сославия, Захиридин Мухаммад Бабур, царь и поэт, Амир Темур. В этот период исторические образы интерпретировались скорее как символы национального пробуждения, свободы, мужества, гордости и памяти. Поэты перевоплотили историю не только как совокупность фактов, но и как источник духовного и духовного опыта.

**Ключевые слова:** исторический образ, поэзия, национальное сознание, жизнеощущение, нравственное величие, справедливость.

XX asr o'zbek she'riyatida tarixiy shaxslarni gavdalantirish adabiyotda milliy ong, tarixiy xotira va o'zlikni anglash jarayonining muhim bir jihat sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda ko'plab shoirlar tarixiy obrazlar va voqealarni poetik shaklda qayta tahlil qilib, ularni zamonaviy, ijtimoiy, siyosiy kontekstlarda aks ettirishga harakat qilganlar. Tarixiy shaxslar xotirasini madh etish va ular siyomisida millat iftixorini qayta jonlantirish XX asr adabiyotida eng yirik mavzulardan biri bo'lgan.

Bu kabi mavzularni qalamga olgan ijodkorlar orasida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva, To‘ra Sulaymon singari shoirlar alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ismlari tilga olingan shoirlarning hammasi inson qalbining tub-tubiga she‘r bilan kira olgan shoirlardir. Zero, Erkin Vohidov haqli ta’kidlaganik, “She‘r shoir qalbida tug‘ilgan hayotiy tuyg‘ularni ifoda qiladi va shu bilan o‘quvchi yuragini rom qiladi. Shoir o‘zi yonmasa, boshqalarni yondira olmaydi, qalb hislارida otash bo‘lmasa, boshqa qalblarga harorat bera olmaydi. Bu sehrli otashsiz har qanday jimjimalardan, badiiy vositalardan, mahoratdan naf yo‘q”.

Yuqorida keltirilgan fikrlarning dalili sifatida Muhammad Yusufning ayrim she‘rlariga e’tibor beramiz. Xususan, “Xalq bo‘l, elim” she‘ri fikrlarimizga mutanosib:

Ko‘z yoshlaring aylansa ham dengizlarga,  
Qo‘rg‘oningni bermay desang chingizlarga,  
Ulug‘bek nom qo‘yib ketgan yulduzlarga,  
Yuzim bosib o‘tay desang, xalq bo‘l, elim! [1,8]

Bu she‘r sho‘ro tuzumiga qarshi ruhda bitilgan. Shoir o‘zbek millatini, katta-yu kichik, yosh-u qari, barchasini birdamlikka, hamjihatlikka chorlayapti. Buyuk davlat arbobi, astronom, faylasuf Mirzo Ulug‘bekning yulduzlarni aniqlashi, ularga nom berishi, qolaversa, davlatni oqilona boshqargani o‘zbek xalqining iftixori, g‘ururi ekanligini ushbu she‘ri orqali ta’kidlagan.

O‘zbek she‘riyatida tarixiy obrazlar ko‘pincha ramziy, ижодкорнинг бадиий ниятини ma’no kasb etadi. Masalan, Alisher Navoiy, Amir Temur kabi tarixiy obrazlar ko‘proq ma’naviy yuksaklik, adolat, jasorat, faqat xalq g‘ami bilan yashagan inson timsolida tasvirlangan. Bu obrazlar orqali shoirlar o‘z davrining muammolarini badiiy ifodalashga erishganlar.

Muhammad Yusuf yana bir she‘rida talabalarga murojaat qilib shunday yozadi:  
Alp o‘g‘lonlar o‘lkasi bu ko‘hna Turon,  
Qalqonlari, qanotlari, ilm istang.  
Yarim jahon bunyod etgan Sohibqiron,  
Alisherning avlodlari, ilm istang! [2, 102]

Yuqoridagi kabi she‘rlar nafaqat o‘tmishga bo‘lgan hurmat, balki kelajakka yo‘naltirilgan ma’naviy dasturdir.

Buyuk tarjimon Huseyin Jemil Merichning fikricha: “Tarix – muhri buzilmagan xazina”. Shu tarix orqali davlatimiz hozirgi davrda boshqa davlatlardan birmuncha ma’naviy yuksalgan, tarixiy xotiralarga boy davlat hisoblanadi. Buni biz Erkin Vohidovning “O‘zbekistonim” she‘rida yanada chuqurroq his etamiz.

Vahshat vodiysida kechdi asrlar  
Aljabr ustodin tuqquncha yering.  
Ilming yuksalguncha Beruniy qadar,  
To Alisher qadar yetguncha she‘ring,  
Hayratga solguncha fan olamini  
Farg‘oniy chiqargan aniq hisoblar...  
Tebransa ne ajab Toshkent zamini,  
Bu yerga ko‘milgan milliard kitoblar  
Farang-u hind-u chin, iroq, ajamga

Taralding Alqonun, Saydona bo‘lib.  
Buyuklar tan bergen buyuk dostonim-  
O‘zbekistonim. [ 5, 67]

Vatan inson kindik qoni to‘kilgan makondir. Ammo u yerda muqim qolish, o‘z vatani bag‘rida unib-o‘sish, shu vatanda jon berish shoh va shoir Bobur hazratlariga nasib qilmadi. Shu bois, Hindiston sari yuzlangan va u yerda Boburiylar sulolasi 300 yil hukmronlik qilgan. O‘zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva bu mavzuni yurakdan his qilib qog‘ozga tushiradi. Ushbu jumlalarni biz shoiraning “Faqat... Bobur yig‘lagan” she’rida uchratamiz:

Mening karvonim horg‘in, kunbotarga og‘moqda,  
Elas-elas kelmoqda qo‘ng‘iroqlar jarangi.  
Garchand boshim ustida oy nurlari yog‘moqda,  
Holim shu qadar zabun, holim shu qadar tangki...

Yo‘q, ezg‘in ko‘nglimdayin yorishib borar osmon,  
Yorug‘ osmon ostida, bolajonlar, ungaysiz!  
Faqat... Bobur yig‘lagan... “Bu jahonga sig‘masmen”,  
Shundan u yo‘q jahonga sig‘ish goho o‘ng‘aysiz.

Boshimga urayinmi o‘tar dunyo shonini...

Shoirlar faqat tarixiy obrazlarga emas, xalq og‘zaki ijodi namunalariga ham jiddiy e’tibor qaratishgan. To‘ra Sulaymonning “Gul bir yon, chaman bir yon” she’ri o‘ynoqi obrazlar va o‘ziga xos go‘zal ifodaga ega. Mazkur she’rda ramziy obrazlar va xalq dostonlari qahramoni orqali oshiqning samimiylarini bayon etilgan.

Hakim zoti bor yerda dard bir yon, darmon bir yon,  
Yoring jafokash bo‘lsa, uy bir yon, zindon bir yon,  
Ikki jon bir bo‘lmasa, sham bir yon, shamdon bir yon,  
Ayri bo‘lsa yo‘llari, tug‘ bir yon, qalqon bir yon.

Bu olamda Oy tanho, muborak Quyosh tanho,  
Bo‘y qizlarning ichinda bir shu egma qosh tanho.  
Uningdek hech kim menga bo‘lmasa sirdosh tanho,  
Go‘ro‘g‘li sulton bir yon, To‘ra Sulaymon bir yon. [3, 40]

O‘zbek she’riyati jahon adabiyotining eng ko‘hna va boy xazinalaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. U faqatgina mumtoz adabiyot vakillari Navoiy va Bobur bilan emas, balki ularning izdoshlari G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Mirtemir singari o‘zbek shoirlari bilan ham mashhurdir. Ushbu davrdagi shoirlar hamma vaqt o‘z vatanining mustaqilligini qalamga olganlar. Shu sababli, sovet davri shoirlari uchun ijod qilish anchagini tahlikali bo‘lgan. Muhammad Yusufning “Laganbardorlar” she’rida bu yorqin tasvirlangan.

Otabek Kumushin ko‘zlarin yopib,  
O‘zi ham ortidan qilgach safarlar,  
Qodiriy boboning qo‘llarin o‘pib,  
Chohga itargan ham- laganbardorlar.

Ular iblis bilan tili bir o'rtoq,  
Ular Azroilga sodiq choparlar.  
Avval Usmonlarni sotib, keyinroq  
Faryod ko'targan ham- laganbardorlar. [ 1, 35 ]

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng buyuk allomalarimiz xotirasi tiklandi. Mustaqillik davri ijodining gullagan davriga to'g'ri kelgan shoir Abdulla Oripov ijodida o'z ustozlarining xotirasini shoirning "Navoiy ko'chasi" she'rida ko'rishimiz mumkin.

Navoiy ko'chasi - Toshkentim faxri,  
Ilm-u fan shahrining pok siynasidir.  
Bu ko'cha cho'ng tarix ma'rifat nahri,  
O'zbek ziyolisin oyinasidir.

Navqiron yillarim o'tgan ushbu yer,  
Yoddan chiqarmidi betakror onlar.  
Yurgan bu yo'llarda Oybek, Mirtemir,  
Olim Xo'jayevlar, Shukur Burxonlar... [ 4, 297 ]

Xulosa qilib aytganda, XX asr o'zbek she'riyati o'zining mazmun va shakl jihatidan yangilangan, tarixiy va milliy ong uyg'onishining muhim bosqichini bosib o'tgan adabiyot sifatida alohida e'tiborga loyiqidir. Ushbu davr she'riyatida tarixiy obrazlar talqini orqali shoirlar milliy o'zlik, istiqlol g'oyalari, ajdodlarga hurmat va tarixiy xotira singari muhim masalalarni poetik ifoda vositasiga aylantirdilar. Ayniqa, Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslar obrazlari orqali shoirlar nafaqat o'tmishta murojaat etdilar, balki zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy muammolarni ham yoritishga harakat qildilar. Tarixiy obrazlar poetik talqini orqali shoirlar xalq qalbiga yaqin, ibratli timsollar yaratdilar. Bu obrazlar o'tmisht bilan bugunning, an'ana bilan yangilikning uzviy aloqasini ko'rsatdi. Natijada, XX asr o'zbek she'riyati tarixiy ongni shakllantirish, milliy g'ururni uyg'otish va madaniy merosni targ'ib qilishda muhim rol o'ynadi.

Shu tariqa, XX asr o'zbek she'riyatida tarixiy obrazlarning talqini adabiy-estetik taraqqiyotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat adabiy jarayonda, balki ijtimoiy-ma'naviy hayotda ham sezilarli iz qoldirdi.

#### Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. - Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. 2017, 287 b.
2. Muhammad Yusuf. Bevafo ko'p ekan. - Toshkent, O'zbekiston nashriyoti. 2018, 135 b.
3. To'ra Sulaymon. Iltijo. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1976. 40b.
4. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. - Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001, 493 b.
5. Erkin Vohidov. Saylanma 3-jild. - Toshkent, "Sharq" nashriyoti. 2001, 271 b